

5.2 «Iste'molchi» bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan, biroq unga darhol xabar bergan holda elektr energiyasi berishni vaqtincha uzib qo'yish, to'xtatish yoki cheklashga «Ta'minotchi» tizimida avariyaning oldini olish yoki uni tugatish uchun kechiktirib bo'lmaydigan choralarни kurish zarur bulgan hollarda yo'l qo'yiladi.

5.3 Elektr energiyasi iste'molining belgilangan rejimi buzilganda:

-shartnomada nazarda tutilgan elektr energiyasi hajmi qiymatining kamida 50% oldindan to'lamaganda.

-hisob-kitob oyi tamom bo'lgandan keyin 30 kun mobaynida iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun to'lanmagan qarzi mavjud bo'lganda.

-Iste'molni elektr energiyasi tarmog'iga o'zboshimchalik bilan ulanganda yoki quvvat shartnomada kelishilgan miqdordan oshirilganda

«Uzstandart» agentligi organlari tomonidan tekshirilgan iste'mol qilinadigan energiyani hisobga olish priborlari ega bo'lganda

«Ta'minotchi»ning vakili soat 8.00dan 20.00 gacha bo'lgan davr mobaynida hisoblash priborlarini ko'rishga asossiz qo'yilmaganda, «Ta'minotchi» elektr energiyasi berishni to'xtatib quyish huquqiga ega buladi.

5.4 «Iste'molchi» da hisobga olish pribori bo'lmaganda.

-xisobga olish pribori «Iste'molchi»ning aybi bilan shikastlanganda

-xisobga olish priborlari ishga tushirish sxemasi o'zgarganda yoki hisoblagichdan tashqari nagruzka ulanganda.

-foydalanilgan elektr energiyasi uchun haq belgilangan muddatlarda to'anmaganda «Iste'molchi» 1 kun oldin ogohlantirilib elektr energiyasi tarmog'idan uzib quyiladi.

5.5. Elektr energiyasini uzib qo'yish texnogen va avariya oqibatlariga olib kelish mumkin bo'lgan, alohida xavf va uzlusiz texnologiya jarayonga ega bo'lgan iste'molchilarining tulov muddati o'tgan qarzlarini vujudga kelgan taqdirda haqi to'lanmaganligi uchun elektr energiyasi berilishini cheklash, belgilangan tartibda energiya bilan ta'minlashning texnologik va avariyalı brongacha, to'liq uzib qo'yish esa faqat sud qaroriga kura amalga oshirish mumkin. «Ta'minotchi» va «Iste'molchi» tomonidan imzolangan texnologik va avariyalı bronni dalolatnomalari shartnomanining uzviy qismi hisoblanadi.

## 6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1 Elektr energiyasi yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, yoki 5 foizdan ko'p miqdorda elektr energiyasi yetkazib berilmagan hollarda «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlar bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiyligi so'mmasi yetkazib berilmagan elektr energiyasi qiymatning 50% dan ortiq bo'lmasligi kerak.

6.2 Yetkazib berilgan elektr energiyasi haqini o'z vaqtida to'lamagani uchun «Iste'molchi» «Ta'minotchi»ga o'tkazib yuborilgan har bir kuni uchun to'lov summasining 0.4 % biroq kechiktirilgan to'lov summasining 50% ortik bo'lmasligi miqdorda penya to'laydi.

6.3 «Iste'molchi»ning taklifiga ko'ra mo'ljallanayotgan o'zgartirishlargacha 10 kundan kech bo'lmasligan muddatda kiritilgan elektr energiyasining shartnomadagi hajmlarining o'zgartirilishi elektr energiyasini kam olish yoki ortiqcha olish deb hisoblamaydi.

6.4 Penya va jarima to'lash taraflarning shartnomanining majburiy shartlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

6.5 Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik va boshqa masalalar taraflarning kelishuvni va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalari bilan tartibga solinadi.

## 7. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1 Tomonlarning kelishuvni bilan hal kilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjalarida belgilangan tartibda tegishli tuman-shahar, viloyat Iqtisodiy sudi orqali sud tartibida hal qilinadi.

7.2 Shartnomada bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjalarida belgilangan hollar bundan mustasno.